

## JAMI AND NAVOI: ON THE ISSUE OF CREATIVE INFLUENCE

**Ilyos Abdukayumovich ISMOILOV**

Doctor of Sciences in Philology, docent

Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature  
Tashkent, Uzbekistan

## JOMIY VA NAVOIY: IJODIY TA'SIR MASALASI XUSUSIDA

**Ilyos Abdukayumovich ISMOILOV**

Filologiya fanlari doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

## ДЖАМИ И НАВОИ: К ВОПРОСУ ТВОРЧЕСКОГО ВЛИЯНИЯ

**Ильёс Абдукаюмович ИСМОИЛОВ**

Доктор филологических наук, доцент

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы  
имени Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан [ismoilovilyos891@gmail.com](mailto:ismoilovilyos891@gmail.com)

---

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Ismoilov I.A. Jomiy va Navoiy: ijodiy ta'sir masalasi xususida.// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 6. — B. 243-253.

<https://doi.org/10.36078/1735447613>

**Received:** November 16, 2024

**Accepted:** December 17, 2024

**Published:** December 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



**Abstract.** The study of transition of motifs and plots in literary criticism, that is, the study of the transportation of plots, has taken a serious turn since the 19th century. The theory of transportation of plots, outlined by T. Benfey, showed that the source of multiple plots in European storytelling is the "Panchatantra", which contains ancient Indian parables and tales. According to T. Benfey, it is precisely creative appropriation or transportation as an inter-literary connection that is the driving force behind literary development. The task of specialists is to clarify these appropriations and connections. It should be noted that the theme of Alexander has also been transformed over the centuries from West to East, from history to literature. In this process, it underwent certain changes, but it was able to preserve its basic motifs. By acquiring a mobile character, this theme also served as a literary and aesthetic tool that created and manifested inter-literary connections. In the history of this theme, epics within the tradition of epic poetry appear to be a large and important link. In this article, *The Iskandarnamas* of Abdurahman Jami and Alisher Navoi are comparatively analyzed. The main focus is on the issues of *creative cooperation*, *creative consensus*, and *creative influence*. All opinions and considerations are proved by the examples of the epics "Khiradnamai Iskandari" and "Saddi Iskandari".

**Keywords:** Abdurahman Jami; Alisher Navoi; comparative studies; Iskandar; Iskandarnama; creative influence; literary cooperation.

**Annotatsiya.** Adabiyotshunoslikda ko'chib yuruvchi motiv va sujetlar tadqiqi, ya'ni sujetlar migratsiyasini o'rGANISH ishlari XIX asrdan boshlab jiddiy tus oldi. T. Benfey tomonidan bayon qilingan sujetlar migratsiyasi nazariyasi Yevropa hikoyanavislidagi ko'plab sujetlarning manbasi sifatida qadimgi hind masal va ertaklarini o'zida jamlagan "Panchatantra" ekanini ko'rsatdi. Komparativistika

asoschilaridan biri Teodor Benfeyning fikricha, aynan ijodiy o‘zlashtirish yoki ko‘chib o‘tish adabiyotlararo aloqa sifatida adabiy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi. Mutaxassislarining vazifasi esa mazkur o‘zlashtirish va aloqalarni aniqlab berishdan iboratdir. Iskandar mavzusi ham asrlar davomida G‘arbdan Sharqqa, tarixdan adabiyotga transformatsiya bo‘ldi. Bu jarayonda muayyan o‘zgarishlarga uchrab bordi, ammo o‘zining asos motivlarini ham saqlab qola oldi. Ushbu mavzu sayyor xarakter kasb etish orqali adabiyotlararo aloqalarni yuzaga keltiruvchi va namoyon etuvchi adabiy-estetik vosita vazifasini ham bajardi. Mazkur mavzu tarixida xamsanavslig an’anasi tarkibidagi dostonlar katta va muhim halqa sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy iskandarnomalari qiyosiy tahlil etilgan. Bunda asosiy e’tibor *ijodiy hamkorlik, ijodiy hamfikrlik* va *ijodiy ta’sir* masalalariga qaratilgan. Barcha fikr va mulohazalar “Xiradnomayi Iskandariy” hamda “Saddi Iskandariy” dostonlari misolida asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** Abdurahmon Jomiy; Alisher Navoiy; komparativistika; Iskandar; iskandarnoma; ijodiy ta’sir; adabiy hamkorlik.

**Аннотация.** В литературоведении исследование кочующих мотивов и сюжетов приобрело серьезный характер начиная с XIX века. Теория миграции сюжетов, изложенная Т. Бенфеем, показала, что «Панчтантра», вобравшая в себя древнеиндийские басни и сказки, является источником многих сюжетов в европейской новеллистике. По мнению Т. Бенфея, именно творческое освоение или перемещение как межлитературная связь является движущей силой литературного прогресса. Задача специалистов заключается в определении этих связей и их освоении. Следует отметить, что тема Александра на протяжении веков трансформировалась с Запада на Восток, из истории в литературу. В этом процессе она претерпела определенные изменения, но смогла сохранить и свои основные мотивы. Эта тема также выполняла функцию литературно-эстетического средства, создающего и проявляющего межлитературные связи, приобретая странствующий характер. В истории этой темы дастаны, входящие в традицию хамсанави, выступают как большое и важное звено. В статье проведен сравнительный анализ произведений об Александре Абдурахмана Джами и Алишера Навои. При этом основное внимание уделяется вопросам творческого сотрудничества, творческого взаимодействия и творческого влияния. Все мнения и суждения основаны на примере дастанов «Хирадномай Искандари» (Книга мудрости Искандара) и «Садди Искандари» (Стена Искандара).

**Ключевые слова:** Абдурахман Джами; Алишер Навои; компаративистика; Искандар; Искандарнома; творческое влияние; литературное сотрудничество.

## Kirish

Mumtoz adiblar, xususan, Alisher Navoiy asarlarida ijodiy ta’sir va originallik oliv darajada uyg‘unlashgani bois ularni bir qarashda ilg‘ab olish mushkul. Aslida, adabiyotshunoslikning eng asosiy vazifasi muayyan ijodkorning ijodiy ta’sir va an’analar doirasida originallik namoyon eta olish mahoratini aniqlashdan iboratdir. Zero, originallik har qanday sohada bo‘lganidek adabiyotda ham birinchi o‘rinda turadi. Ayni paytda, hech bir

ijod namunasi o‘zaro ta’sir hodisasidan xoli bo‘lmasligi ham shoyon haqiqat. Bu vazifa ayniqsa adabiy traditsiyalar qurshovida ijod qilgan ijodkorlar asarlari tadqiqida dolzarblik kasb etadi.

O‘zbek adabiyotshunosligida milliy adabiyotlar o‘rtasidagi mushtarak an’analarni “Xamsa” dostonlari asosida o‘rganish ishlari o‘tgan asrning oxirlarida bir qadar olg‘a siljidi, biroq ba’zi masalalar yechilmay qoldi. Alisher Navoiy asarlarini qiyosiy aspektda o‘rganish orqali shoir ijodining jahon adabiyoti rivojidagi munosib o‘rnini ilmiy asoslash, Navoiyga xos ijodiy originallikning namoyon bo‘lish qonuniyatlarini aniqlash kabilar shular jumlasidandir. Ushbu maqsadlarga erishishda Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy o‘rtasidagi ijodiy aloqalarni ilmiy asosda tekshirish, uning mazmun-mohiyatini belgilash nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

### Asosiy qism

**Ijodiy hamkorlik.** Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiyning hamkorligi ikki adabiyot va xalq o‘rtasidagi ijodiy aloqalarning timsolidir. Bu ikki ijodkor butun umri davomida samimiy do‘s tutindi, ustoz-shogird, hammaslak sifatida XV asr Hirot adabiy muhitida muhim o‘rin tutdi. Jomiy va Navoiy ijodiy hamkorligi, ularning har bir yangi asar bahonasida o‘zaro maslahatlashgani, ayrim asarlari yaratilishida bir-biriga turtki, sabab bo‘lganlari manbalarda qayd etilgan. Mazkur ijodkorlarning qay darajada yaqin ijodiy hamkorlikda bo‘lishgani, ular o‘rtasidagi ijodiy ta’sirning yana bir yorqin isboti “Xiradnomayi Iskandariy” va “Saddi Iskandariy” dostonlari misolida namoyon bo‘lgan.

Sharq adabiyotida Iskandar mavzusida masnaviy yozish an’anasi Abulqosim Firdavsiy ijodi bilan boshlandi. Keyinchalik bu mavzu Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodida bir qator original xususiyatlar kasb etdi. Qizig‘i, Jomiy va Navoiy XV asrda Hirot adabiy muhitida parallel ravishda Iskandar mavzusida dostonlar yozishdi. Bu holat ularga mas’uliyat yuklash bilan birga o‘zaro ijodiy ta’sirning ham oliv namunasini ko‘rsatib berdi. Jomiy va Navoiyning yaqinligi — ijodiy rejalarini, ijod jarayonida paydo bo‘ladigan masalalarni maslahatlashish darajasida edi.

Ikki ulug‘ ijodkorning mana shunday ijodiy hamkorligining bir dalili ularning Iskandar nasabiga oid talqinlarida ko‘zga tashlanadi. Alisher Navoiy Iskandarning nasabi va yoshligi borasida adabiy (“Iskandarnoma”, “Oyinayi Iskandariy”), tarixiy (“Tarixi Banokatiy”) asarlar va shaxsan Jomiy maslahatini qayd etgan. Navoiy o‘z dostonini yozar ekan, Iskandarning nasabi masalasi talqinida ikkilanib qoladi, chunki manbalarda bu borada ixtiloflar juda ko‘p edi. U shundan kelib chiqib, “Saddi Iskandariy”da Iskandarning nasabiga doir quyidagi qarashlarni ko‘rsatib o‘tadi:

- 1) Iskandar Faylaqusning asrab olgan farzandi (rumliklar talqini);
- 2) Iskandar Dorobning o‘g‘li, u kayoniylardan bo‘lgan (“Shohnoma”dagi talqin);
- 3) dunyoda ikkita Iskandar o‘tgan, biri Doro bilan jang qilgan, biri Ya’jujga qarshi sad qurban (“Nizom ut-tavorix”dagi talqin);
- 4) Iskandar Faylaqusning haqiqiy o‘g‘li (Nizomiy va Jomiy talqini).

Navoiy ushbu muhim masalani muhokama qilish va unga yechim topish maqsadida o'sha kezlarda "Xiradnomayi Iskandariy"ni yozayotgan Abdurahmon Jomiy bilan shaxsan maslahatlashadi. Jomiy Nizomiy kabi har ikki ish (Doroga qarshi razm va sad qurish)ni yagona Iskandar amalga oshirganini va Iskandarning nasabi masalasida Nizomiyning qarashi to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi. O'z navbatida, Nizomiy "Iskandarnoma"da ushbu masalaga oid uch xil qarashni keltirgan edi:

1. Rumliklar talqini: Iskandar bir zohid ayolning farzandi bo'lib, onasi vayronada tug'ibiq vafot etgan.
2. Ozarparastlar talqini: Iskandar Dorobning farzandi.
3. Boshqa bir tarixchining talqini: Iskandar Faylaqusning farzandi (Y. E. Bertels "Низами" nomli monografiyasida mazkur talqinlarning kelib chiqish manbalari haqida bat afsil so'z yuritgan (4, 196–231)). E'tiborli tomoni shundaki, Nizomiy uchinchi qarashni ma'qullab, dastlabki ikki qarashni tanqid qiladi:

*Dar on har du guftor chusti nabud,  
Gazofa suxanro durusti nabud* (8, 43).

Nizomiyning mazkur talqini tarix nuqtayi nazaridan asosli bo'lib, yunon manbalari bilan yaxshi tanish bo'lgan Abu Rayhon Beruniy Nizomiydan bir necha asr oldin Iskandar Filipp podsholigining sakkizinchı yilda Olimpiadadan tug'ilganini aniq qayd etib qo'ygan edi (6, 117). Xullas, Jomiy Navoiyga Iskandarning nasabi borasida maslahat berar ekan Nizomiyning yuqoridaq qarashi to'g'riliqini ta'kidlaydi. Bu fikrning yana bir isboti Jomiyning o'z dostoni bo'lgan "Xiradnomai Iskandariy"da turibdi. Jomiy o'z asarida Iskandar obrazini aynan haqiqiy shahzoda sifatida talqin etgan:

*Zi damsozii in aro 'sash ba bar  
Xudo dod pironasar yak pisar* (18, 262).

Ya'ni Xudo keksa (Faylaqus)ga o'z malikasi bilan hamdamligidan hosila sifatida bir o'g'il ato etdi.

Navoiy Jomiy bilan maslahat qilganidan so'ng Iskandarning nasabi borasida bir xulosaga kelgan va "Saddi Iskandariy"da Iskandar obrazini Faylaqusning haqiqiy o'g'li sifatida badiiy talqin etgan. Bu haqiqatni butun doston davomida kuzatish mumkin. Shu ma'noda aytish mumkinki, "Navoiy o'z dostonida Iskandarni asrandi farzand sifatida talqin qilgan" qabilidagi qarashlar haqiqatga zid bo'lib chiqadi. Qisqasi, Navoiy va Jomiy mana shunday hamfikr bo'lishgan, ular biror mushkulot yoxud ilmiy masala yuzaga kelsa, albatta, o'zaro maslahat qilishgan va bunday maslahatlar yuqoridaq kabi ko'plab ijodiy yutuqlarga zamin bo'lib xizmat qilgan.

**Ijodiy hamfikrlik.** Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy nafaqat ustoz-shogird, hammaslak bo'lgan, balki ular hamfikr, ilmiy-ma'rifiy saviya nuqtayi nazaridan bir-biriga juda yaqin bo'lishgan. Bu ikki ulug' ijodkorning hamfikrligini ko'rsatuvchi bir qancha dalillar mavjud, shulardan biri Iskandarning taxt-u tojdan bosh tortish episodi hisoblanadi.

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy”ning XV bobida Faylaqusdan so‘ng Iskandarning taxtga chiqishi tasviriga jiddiy e’tibor qaratadi. Unga ko‘ra, Iskandar dastlab taxtga o‘tirishni istamaydi, chunki u barcha soha va ilmlarda inson yetishi mumkin bo‘lmagan darajaga erishgan bo‘lib, otasining vafoti timsolida dunyoning foniyligiga oid nazariy qarashlarining amaliy isbotini ko‘rgan edi (14, 86–95). Navoiyga qadar tarixiy asarlarda ham, adabiy asarlar (Firdavsiy, Nizomiy va Xusrav)da ham Iskandarning taxtga o‘tirishi bilan bog‘liq mazkur talqinni ko‘rmaymiz. Holbuki, bu epizod Navoiy Iskandarini tushunishda shu qadar muhim jihatki, qahramonning keyingi butun faoliyati mazkur nuqtaga kelib tutashadi. Navoiyning ushbu voqeani alohida bir faslda tasvirlashi uning siyosiy-axloqiy ideali, asarda ko‘zlagan adabiy-estetik maqsadi bilan bevosita bog‘liqdir. Iskandarni toj-u taxtga havasmand bo‘lmagan, balki taqdir taqozosi bilangina hukmdor bo‘lgan shoh sifatida tasvirlashdan, birinchi navbatda, Navoiyning o‘zi manfaatdor edi. Iskandarning faqir qiyofasida tasvirlanishi Navoiy fenomeniga xos ma’rifiy g‘oyalarga qanchalik muvofiq kelsa, XV asr Xuroson siyosiy muhitiga ham shu qadar zarur edi. Bu epizodning Firdavsiy, Nizomiy, Xusrav asarlarida emas, faqat Jomiy iskandarnomasida borligining o‘ziyoq yuqorida fikrni tasdiqlaydi. Jomiy va Navoiy bu borada hamfikr, biroq Jomiy masalani Navoiyda bo‘lgani kabi keskin qo‘ygan emas. Navoiy ushbu epizod tasviri orqali o‘z qahramoni bo‘lgan Iskandarning ma’naviy dunyosi, botini faqrqa oshno ekanligini ko‘rsatib berishga harakat qilgan va o‘z maqsadiga erishgan. Navoiy esa mazkur epizodni burilish nuqta sifatida tasvirlaydi.

Mazkur epizodning salaflar orasidan faqat Jomiy va Navoiy dostonlaridagina uchrashi ularning nihoyat darajada yaqin hamfikr bo‘lganliklarini tasdiqlaydi. Shubhasiz, har ikki ijodkor ushbu epizodni bir-biridan xabarsiz asarlariga kiritishgan. Shu ma’noda buni aynan badiiy ijoddagi “tavorud” hodisasi deb hisoblash mumkin. Shu bilan birga Jomiy va Navoiy hamfikrligining oliy namunalaridan biri sifatida ko‘rsatish ham mumkin.

**Ijodiy ta’sir masalasi.** Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodi adabiy ta’sir va ijodiy aloqaning ham ibratli namunasi. Xususan, Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonini Jomiyning “Xiradnomayi Iskandariy” dostoniga nazira sifatida yozganini aytadi (12, 26). Bu — hurmat yuzasidan, shunchaki aytilgan gap emas, albatta. Bu qaydlar qanchalik haqiqat ekanligini anglash uchun ikki ijodkorning Iskandar haqidagi dostonlarini qiyoslab ko‘rish zarur. Jomiyning Navoiyga ijodiy ta’siri, “Saddi Iskandariy”ning “Xiradnomayi Iskandariy”dan ta’sirlanib yozilgani ko‘pgina jihatlarga ko‘ra asoslanishi mumkin bo‘lgan masala, biroq maqola hajmidan kelib chiqib masalaning javobini ko‘rsatuvchi eng muhim jihat tahlili bilangina cheklanamiz. Bizningcha, “Saddi Iskandariy”ning “Xiradnomayi Iskandariy” ta’sirida yozilgani Navoiy dostoni kompozitsiyasida juda ochiq namoyon bo‘lgan.

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” kompozitsiyasi qanday tuzilganini amalda ko‘rsatishdan tashqari, bu qarorga qanday kelgani haqida ham maxsus to‘xtalgan. U bir o‘rinda dostonni yozishdagi asosiy muammolar xususida shunday yozadi:

*Bu yanglig‘ yetib to‘rti itmomig‘a,*

*Biri yetmamish erdi anjomig ‘a.  
Shuru ‘i dog‘i nopalidor o ‘lub  
Ki, tag‘yir vaz‘ig‘a dushvor o ‘lub.  
Latoyif topilmas edi oncha ham,  
Yana to ‘rtiga lohiq o ‘lg‘oncha ham.  
Ko ‘ngulda topilmasdin ozor edi,  
Va lekin topar fikrida bor edi* (14, 61).

Ya’ni mazkur uch masala — *nimani yozish, qanday yozish va qay tarzda tartiblash* Navoiyni jiddiy o‘ylantirgan. Navoiy yuqoridagi muammolar to‘g‘risida bosh qotirib yurar ekan, Jomiyning iskandarnoma yozayotgani, uning Iskandar holoti (ishlari)ga e’tibor qaratmay, faqat maqoloti (so‘zlari)ni qalamga olayotganini eshitib qoladi. Aynan Jomiy tutgan yo‘l — “Saddi Iskandariy” dostonini qanday yozish borasida Navoiyning bir qarorga kelishida asosiy turki vazifasini bajaradi. Navoiy shundan so‘ng quyidagicha yo‘l tutishga qaror qiladi:

*Yo ‘nub xoma, kog‘az nigorish qilay,  
Ham ul dostonni guzorish qilay.  
Skandar jahondori kishvarsiton  
Ishidin chu nazm o‘lsa har doston.  
So‘zidin dog‘i yaxshi taqrib ila,  
Ham ul doston zaylida zeb ila,  
Suray hikmatoso maqolotini,  
So‘z ichra ajoyib xayolotini...  
Ki, farzonalar deb ko ‘p afsona ham,  
So‘zin nazm etibdur bu farzona ham.  
Qadam ursam ushbu iki yo‘lg‘a men,  
Nekim borchha debdur, demish bo‘lg‘amen* (14, 62).

Demak, aynan Jomiyning “Xiradnama”dagi uslubi Navoiyning o‘z dostonida Iskandarning ham holoti (sarguzashti), ham maqoloti (hikmatli so‘zlari)ni yozishiga sabab bo‘lgan. Bu Navoiyga, o‘z navbatida, Iskandarga oid behisob materialni kengroq qamrab olish imkonini berardi. Navoiyning mazkur iqrori va qarori uning Nizomiy, Dehlaviy va Jomiylardan farqli yo‘l tutgani va “Saddi Iskandariy”ni original tarzda yaratganini tasdiqlovchi yaqqol dalil hamdir. Chunki Nizomiy va Dehlaviy asosiy e’tiborni Iskandarning holoti tasviriga, Jomiy maqoloti talqiniga qaratgan edi. Navoiy bu yo‘sirlarni Iskandar mavzusi tasviri tarixidagi “iki yo‘l” deb ko‘rsatadi.

Yuqoridagi parchada Navoiyning “Saddi Iskandariy” kompozitsiyasi borasida ham bir qarorga kelgani aks etgan: *qalam yo‘nib, qog‘oz bezab doston hikoya qilay va Iskandar ishining har dostoni (qissasi) nazm bo‘lsin. Qissa zaylida<sup>1</sup> – oxirida (ortidan) yaxshi bir bahona bilan so‘zlarini, undagi ajoyib xayolotini zeb bilan bayon qilsam, doston zebi elga firib bergenidek so‘zidan ham firib yetsa, asarning zebi yanada ortadi. Agar farzonalar (Nizomiy va Dehlaviy – I.I) ko‘p afsonasini*

<sup>1</sup> “Zayl” – doman, biror narsaning oxiri, qo‘shimcha, ilova ma’nolarini anglatadi. Qarang: (13, 240 – 241; 16, 430 – 431; 11, 360).

*aytgan bo'lsa, bu farzona (Jomiy – I. I) so'zini nazm etdi. Men ushbu ikki yo'lga qadam qo'ysam, ularning barcha aytganlarini aytgan bo'laman.* Demak, Navoiy dastlab Iskandar qissasini hikoya qilish va ortidan yaxshi bir bahona bilan ilova sifatida Iskandar so'zlarini tasvirlashga qaror qilgan. Bu fikr "Hikmat"lar "Sarguzasht"dan keyin joylashtirilganini tasdiqlaydi, o'z-o'zidan, asosiy boblar kompozitsiyasi "Sarguzasht", "Nazariy masala", "Hikoya" va "Hikmat" tarzida tuzilgani oydinlashadi. Navoiy bu orqali shundoq ham elga firib beradigan darajadagi "Sarguzasht"lar ta'sirini Iskandarning ajoyib hikmatlari, g'aroyib xayoloti ifodasi bilan yanada kuchaytirishni ko'zlagan. Bundan Navoiyning Iskandar qissasiga asosiy maqsad deb qaragani, keyingi uch qismni esa qo'shimcha vosita deb bilgani aniq anglashilib turibdi.

Alisher Navoiyning bunday yo'ldan yurishi xamsanavislik tarixida kuzatilmagan edi. "Shohnoma" tarkibidagi "Iskandar dostoni"ni uslub nuqtayi nazaridan chinakam jangnoma deyish mumkin, chunki Nizomiydan boshlab Iskandar to'g'risidagi qissalarga lirik va didaktik ruh kirib kela boshladi. Nizomiy dostoni, umuman olganda, epik xarakterga ega bo'lsa-da, "Iqbolnoma"da didaktik xarakter yetakchilik qiladi (7, 845). Xusravdan boshlab iskandarnomada jangnomalik xususiyati susayib, ma'rifiy-didaktik ruh ustunlik qila boshladi. Shu tariqa Iskandar haqidagi qissalarda jahongirlik tafsilotlari deyarli tushib qolib, o'rniga Iskandar hayoti bilan bog'liq turli ibratlari voqealar, falsafiy va so'fiyona g'oyalarni ifodalovchi so'zlar egallay boshladi. Ahmadiy va Jomiy iskandarnomalari bu yo'naliшhing tipik namunasi siftida yuzaga keldi.

"Saddi Iskandariy"ni yozishga kirishar ekan Navoiy qarshisida mana shu ikki yo'naliшh turardi. Navoiy ulardan birini tanlashi yoxud uchinchi yo'lni topishi zarur edi. U har ikki yo'naliшhni omuxta qilib, o'z badiiy mahorati bilan sintezlashga qaror qiladi. Amalda bu xamsanavislik taraqqiyotida yangi – uchinchi yo'l bo'ldi. Natijada asarga Iskandar to'g'risidagi jangnomalarga xos xususiyatni ifodalash uchun Iskandar jahongirligi aks etgan "Sarguzasht" boblar va Iskandar bilan bog'liq falsafiy-ma'rifiy voqealar, fikrlarni aks ettirish maqsadida "Nazariy masala", "Hikoyat" va "Hikmat" kabi qismlar kiritiladi. Navoiy o'z salaflaridan farqli ravishda masalaning har ikki jihatni, ya'ni Iskandarning holoti-yu maqolotini birdek tasvirladi, bu o'z navbatida yangi bir kompozitsiya yuzaga chiqishiga sabab bo'lgan.

Masalaning e'tiborli tomoni shundaki, Navoiyning yuqoridagi qaydlari "Saddi Iskandariy" dostoni kompozitsiyasi va uning ifoda tarzi aynan Jomiyning "Xiradnoma"dagi uslubi ta'sirida shakllanganini tasdiqlaydi. Aynan Jomiyning masalaga yondashuv tarzi "Saddi Iskandariy" dostonining tuzilishi, qamrovi va bayon tarzining shakllanishida asosiy omil bo'lgan. Shu bois ham Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonini yozishda "Xiradnomayi Iskandariy"dan jiddiy ta'sirlanganini yozar ekan "Yana chun "Saddi Iskandariy" asosin xotirim muhandisi solibdur, Hazrati Maxdum "Xiradnoma"sidin ko'si isloh va imdod cholibdur" (12, 26) deydi. Navoiy ushbu qaydlarida "Saddi Iskandariy" asosi", "xotirim muhandisi", "ko'si isloh va imdod" kabi ifodalarni bejiz qo'llamagan. Ushbu ifodalar ham Navoiy o'z dostoni uslubi va kompozitsiyasini belgilab olishda Jomiy "Xiradnoma"sidan ruhlanganini tasdiqlaydi. Darhaqiqat, yuqorida ko'rganimizdek Navoiy o'z

dostoni asosini solishdek murakkab va muhim masalada Jomiy “Xiradnoma”si tavridan madad olgan, shu sababli ham o‘z dostonini “Xiradnoma” ta’sirida yaratganini maxsus qayd etgan deyish mumkin.

Yuqorida “Saddi Iskandariy” kompozitsiyasining shakllanishiga Jomiyning uslubi turtki berganini ko‘rib chiqdik. Qizig‘i, Jomiyning uslubi Navoiy uchun faqat tarqoq fikrlarini jamlab olishi uchun zarur turtki bo‘lgan, xolos. Amalda Navoiy o‘z asari kompozitsiyasini shakllantirishda Jomiy kompozitsiyasidan farq qiluvchi yo‘ldan borgan. Aytish mumkinki, Navoiy “Saddi Iskandariy”da Nizomiy va Xusrav iskandarnomalaridagi kompozitsiyaga oid tajribalarni ham rivojlantirgan. Jomiy va Navoiy dostonlari tuzilishiga ko‘ra bir-biridan butunlay farq qiladi deyish ham mumkin (2, 10–14; 15, 170–180; 3, 121).

Alisher Navoiy o‘z dostonini ham mazmunan, ham tuzilishiga ko‘ra rivojlantirgan, badiiy konsepsiyasi uchun murakkab va original ifoda tanlagan (1, 10). Xususan, Jomiy asarida harakatdagi voqelik — sujet deyarli uchramaydi, muallif ko‘proq Iskandar bilan bog‘liq falsafiy so‘zlar, axloqiy-tarbiyaviy voqeа-hodisalar ifodasiga e’tibor qaratadi. “Xiradnoma” kompozitsiyasi didaktik maqsad uchun xizmat qildirilgan, ya’ni “Jomiy dostoni uning “Silsilat uz-zahab”, “Tuhfat ul-ahrор” va “Subhat ul-abror” asarlari uslubida yozilgan” (7, 845; 1, 91). Navoiy dostonida esa didaktika, pand-nasihat mukammal badiiy qobiq – murakkab kompozitsiya bilan muvofiqlashtirilganki, u deyarli sof (shahzodalar madhini e’tiborga olmaganda) estetik hodisa sifatida qabul qilinadi.

Ayrim mutaxassislар, jumladan, Y. E. Bertels Jomiy uchun daxmaza bo‘lgan Iskandar afsonasining Navoiy tamonidan saqlab qolinishini ular o‘rtasidagi asosiy farqlardan biri sifatida ko‘rsatadi, ammo Navoiy nima uchun shunday qilgani izohlanmaydi. Gap shundaki, Navoiy Jomiy bilan bu borada hammaslak bo‘lsa-da, uning Iskandar mavzusiga munosabati Jomiynikidan farq qilar edi. Navoiy faqat “Nasihat ul-muluk” tipidagi asar yaratishni maqsad qilganida Jomiy yo‘lini tutgan bo‘lardi, ya’ni unga Iskandar voqeasidan illyustratsiya sifatida foydalanishga ehtiyoj qolmasdi. Navoiy birinchi navbatda tarixiy mavzuda asar yaratishni maqsad qilgan, chunki bu an’ana talabi edi. Navoiyning maqsadi turkiy tilda Sharq badiiyatining eng yuksak mezoni bo‘lgan xamsanavislik talablariga to‘la javob bera oladigan asar yaratish va bunda biror jiddiy mulohazaga o‘rin qoldirmaslik edi. Xusrav va Jomiyarning yangiliklarga dadil qo‘l urishi bir jihatdan tabiiy, chunki fors adabiyoti bu borada muayyan tajribaga ega bo‘lib, namuna sifatida qabul qilingan “Xamsa” shu tilda yaratilgandi. Navoiy “Xamsa”si esa turkiy tilda birinchi namuna edi, shu bois u Xusrav yoki Jomiy larga nisbatan biroz “mas’uliyatliroq” bo‘lishi, turkiy tilning imkoniyatini ko‘rsatish uchun “Xamsa” yaratishda jiddiy e’tirozga o‘rin qoldirmaydigan yo‘lni tanlashi, Nizomiy “Xamsa”sidan kelib chiquvchi klassik talablarni to‘la bajarishi lozim edi. Shu bois Navoiy dostonidagi tarixiy qissani “shunchaki illyustratsiya” deb tushunish o‘zini oqlamaydi. Navoiy xamsanavislik talabiga ko‘ra tarixiy mavzuda yozishi kerak edi, ikkinchidan, bu mavzu Navoiyga o‘zining eng yuksak ideallarni ifodalash, qolaversa, yirik arbob sifatida davrning muhim masalalariga o‘ziga xos yechim ko‘rsatishida ham qo‘l kelardi.

Jomiy asosiy e’tiborini axloqiy-ma’rifiy jihatga qaratgani, “maqolot” tasvirini obyekt qilib olgani bois an’anaviy usul, ya’ni muayyan voqeа

tasviridan so‘ng unga oid hikoya yoki isbot keltirish yo‘lidan boradi. Jomiy uchun qissa bahonasida o‘zining axloqiy-ma’rifiy fikrlarini bayon qilish asosiy maqsad edi. Jomiyning o‘zi bu haqda yozadi:

*Ba yak silk xoham chu gavhar kashid,  
Xiradnomaho, k-az Sikandar rasid.  
Xiradnomha z-on ixtiyor man ast,  
Ki afsonaxoni na kori man ast.  
Zi asrori hikmat suxan rondan,  
Beh az qissahoi kuhan xondan (18, 246).*

Navoiy ko‘pgina masalalarda Jomiy bilan hammaslak edi, “Saddi Iskandariy”ga Iskandar maqoloti (falsafiy savol-javoblar)ning kiritilishi ham bevosita Jomiyning ijodiy ta’siri samarasи sifatida ko‘rsatilishi mumkin. O‘z dostonini qanday tasvirlashda bir qarorga kelishida yordam bergani uchunmi yoki Jomiy uslubini dostoniga olib kirib konkret originallikni yuzaga chiqargani uchunmi, har holda, Navoiy “Saddi Iskandariy”ni “Xiradnomayi Iskandariy”ga tatabbu’ deydi va bu fikr doston mazmuni va badiiy to‘qimasida to‘la o‘z aksini topgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуқодиров А. Мавлоно Абдураҳмон Жомий ва Амир Алишер Навоий. — Хучанд: Нури маърифат, 2014. — 208 с.
2. Абдуқодиров А. «Садди Искандарий»: анъана ва ўзига хослик // Ўзек тили ва адабиёти, 2014. — № 1. — Б. 10–14.
3. Азимов Ю. Абдураҳмон Жомий «Хирадномайи Искандарий» достонининг қиёсий-типологик таҳлили: Филол. Фан. Номз. ...дисс. — Самарқанд, 1996. — 143 с.
4. Бертельс Е.Э. Низами. Творческий путь поэта. — Москва: Наука, 1956. — 261 с.
5. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Том 4. Навои и Джами. — Москва: Наука, 1965. — 498 с.
6. Беруний Абу Райхон. Қонуни Масъудий. Асарлар. Беш томлик. Т.5. 1к. — Тошкент: Фан, 1973. — 117 б.
7. Vittor Ch.F. The Herat schools persian poetry in the timurid period: A Diss. ...Ph.D. — Berkeley, 1978. — 989 p.
8. Ганчавӣ Н. Ҳамса: Искандарнома. — Душанбе: Адиб, 2012. — 480 с.
9. Дехлавӣ Ҳ. Оинайи Искандарӣ. Матни интиқодӣ. — Москва: Шӯбаи адабиёти Ҳовар, 1977. — 377 с.
10. Дима А. Принципы сравнительного литературоведения. — Москва: Прогресс, 1977. — 210 с.
11. Муҳаммад Ғиёсуддин. Ғиёс ул-луғот. Иборат аз 3 жилд. Ж.1. — Душанбе: Адиб, 1987. — 480 с.
12. Навоий Алишер. Муҳокамат ул-луғатайн. МАТ. 20 томлик. 16-том. — Тошкент: Фан, 2000. — 335 б.
13. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар Шамсиев П., Иброҳимов С. — Тошкент: Faфур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. — 782 б.

14. Навоий А. Садди Искандарий. МАТ. 20 томлик. Т.11. — Тошкент: Фан, 1993. — 640 б.
15. Тоутант М. Навоий ва Жомий // Жаҳон адабиёти, 2016. — № 2. — Б. 170–182.
16. Фарҳанги забони тоҷикӣ (аз асри X то ибтидои асри XX). Иборат аз ду ҷилд. Дар зери таҳрири М. Шукурӯв ва д. Ҷилди I. — Москва: Советская энциклопедия, 1969. — 952 с.
17. Фирдавсӣ А. Шоҳнома: иборат аз 9 ҷилд. Ҷилд 7. — Душанбе: Адид, 1989. — 656 с.
18. Ҷомӣ А. Ҳафт авранг. Осори мунтаҳаб. Ҷилди панҷум. — Душанбе: Ирфон, 1964. — 358 с.

### References

1. Abdukodirov A., *Mavlono Abdurahmon Zhomii va Amir Alisher Navoii* (), Khuzhand: Nuri ma'rifat, 2014, 208 p.
2. Abdukodirov A., Uzbek tili va adabieti, 2014, No 1, pp. 10–14.
3. Azimov Yu. *Abdurahmon Zhomii Khiradnomaii Iskandarii dostonining kiesii-tipologik tahlili: Filol. fan. nomz. ...diss. (Abdurahman Jami's comparative-typological analysis of the epic "Khiradnomayi Iskandariy", candidate's thesis)*, Samarkand, 1996, 143 p.
4. Bertel's E.E. *Nizami. Tvorcheskii put' poeta (The poet's creative path.)*, Moscow: Nauka, 1956, 261 p.
5. Bertel's E.E. *Izbrannie trudy. Tom 4. Navoi i Dzhami* (Selected Works. Volume 4. Navoi and Jami), Moscow: Nauka, 1965, 498 p.
6. Berunii Abu Raihon., *Konuni Mas'udii. Asarlar. Besh tomlik. T.5.* (Law of Masudi. Works. Five volumes. T.5.), Tashkent: Fan, 1973, 117 p.
7. Vittor Ch.F., *The Herat schools persian poetry in the timurid period: A Diss. ...Ph.D.* Berkeley, 1978, 989 p.
8. Gançavi N. *Khamsa: Iskandarnoma*, Dushanbe: Adib, 2012, 480 p.
9. Dehlavi Kh., *Oinaii Iskandari. Matni intikodi (The Mirror of Alexandria)*, Moscow: Shubai adabieti Khovar, 1977, 377 p.
10. Dima A., *Printsipy sravnitel'nogo literaturavedeniya* (Principles of comparative literary studies), Moscow: Progress, 1977, 210 p.
11. Muhammad Giesuddin., *Fies ul-lugot. Iborat az 3 zhild. Zh.1 (Ghiyas ul-lughat.* Consisting of 3 volumes. Vol. 1), Dushanbe: Adib, 1987, 480 p.
12. Navoii Alisher. *Muhokamat ul-luatain. 16-tom* (The discussion is comprehensive, Volume 16), Tashkent: Fan, 2000, 335 p.
13. Navoii asarlari lugati. Tuzuvchilar Shamsiev P., Ibrohimov S. (Dictionary of Navoi's works. Compiled by Shamsiev P., Ibrohimov S.), Tashkent: Gafur Gulom nomidagi Adabiet va san'at nashrieti, 1972, 782 p.
14. Navoii A., *Saddi Iskandarii. Volume.11*, Tashkent: Fan, 1993, 640 p.
15. Toutant M., Zahon adabieti, 2016, No 2, pp. 170–182.
16. Farҳangi zaboni тоҷикӣ (az asri X to ibtidoi asri XX). Iborat az du ҷилд. Dar zeri taҳriri M. Shukurov va d. Ҷildi I (Culture of the Tajik language (from the 10th century to the beginning of the 20th century). It consists of two volumes. Edited by M. Shukurov et al. Volume I.), Moscow: Sovetskaya entsiklopediya, 1969, 952 p.
17. Firdavsi A., *Shokhnoma*, Dushanbe: Adib, 1989, 656 p.

18. Zhomi A., *Haft avrang* (The Seven Thrones), Dushanbe: Irfon, 1964, 358 p.